

## O'ZBEKİSTONDA FERMER XO'JALIKLARI KOOPERATİSYALARINI TASHİLİY TUZİLMASI VA KOOPERATİVLARINING BOSHQARISH MEXANİZMI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8327617>

**G.Sh.Qo'ldasheva**

*Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti*

**A.J.Toshboyev**

*i.f.n.*

*Toshkent davlat agrar universiteti professori*

### **Annotatsiya**

*Maqolada O'zbekistonda fermer xo'jaliklari kooperatsiyalarini tashikiliy tuzilmasi hamda meva-sabzavotchilik kooperativlarining boshqarish mexanizmlari taxlil qilingan.*

### **Kalit so'zlar**

*Qishloq xo'jaligi korxonalari, boshqaruvin mexanizmi, kooperativlar, meva-sabzavotchilik, fermer xo'jaliklari.*

### **Аннотация**

В статье анализируется организационная структура фермерских кооперативов и механизмы управления плодоовощными кооперативами в Узбекистане.

### **Ключевые слова**

*Сельскохозяйственные предприятия, механизм управления, кооперативы, плодоовощеводство, фермерские хозяйства.*

### **Abstract**

*The article analyzes the organizational structure of farmers' cooperatives and the mechanisms for management of horticulture cooperatives in Uzbekistan.*

### **Keywords**

*Agricultural enterprises, management mechanism, cooperatives, horticulture, farms*

Mamlakat mustaqil bo'lgan paytdan boshlab qishloq xo'jaligini rivojlantirishda sobiq "kolxozi" va "sovxozi"lar o'rniga turli shakldagi xo'jalik yurituvchi subyeklar joriy etildi. Bozor munosobatlariga bardosh bera olmagan shirkat xo'jaliklar o'z o'rnini istiqbolli fermer xo'jaliklariga bo'shatib berdi. Fermer xo'jaliklari yarim chorak davlat buyurtmasi asosida strategik mahsulotlarni yetishtirib keldi. Fermer mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lib, asosiy

faoliyatga nisbatan noqishloq sohani rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelishiga qaramasdan ularni bir tizim sifatida boshqarish ishlari amalga oshirilmadi. Oxirgi o'n yillikda klasterlar tizimi joriy etilishi sohani rivojlantirishda qo'shimcha qiymat yaratish, yetishtirilgan xom-ashyodan tayyor iste'mol mollarini ishlab chiqarishgacha bo'lgan faoliyatni amalga oshiradigan tizim sifatida shakllandi. Lekin, istiqbolli deb hisoblangan bo'lsada, ko'zda tutilgan vazifalarni bajarishda o'z yechimini topmagan muammolari bo'lganligi sabab klasterlarni boshqarish dolzarbligicha qolmoqda. O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishda turli xo'jalik yuritishning istiqbolli shakllarini amalda joriy etgani bilan ularni tizim sifatida boshqarish hanuz muammoligicha qolib ketayotganligi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Respublikamizda moddiy va texnik resurslar yuqori darajada cheklanganligini hisobga olib fermer, dehqon va tomorqa yer egalari hamda klasterlarni boshqarish tizimi tashkil etilganligi bilan aholini arzon va sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirib bo'lmanligidan tashqari, eksport salohiyatining salmog'i pastligicha qolishligi avvalo, qo'shimcha qiymat yaratishga bo'lgan islohatlarning sustligi, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga e'tibor berilmasligi, huquqiy maqomga ega bo'lgan xo'jaliklar faoliyatiga noqonuniy aralashish, surunkali yerlarni optimallashtirish, ta'minot va xizmat ko'rsatish madaniyati pastligidan tashqari, narxlarning o'sib borishi boshqaruva jarayoniga keskin ta'sir etib, mahsuot yetishtirishdagi tashqi harajatlar ortib borayotganligi to'g'risida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilmasligi tahlikali holatlar yuzaga kelishga sabab bo'ldi. Davlat o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan buyon qishloq xo'jaligini rivojlantirishda tarixiy ahamiyatli boshqarish tizimi shakllangan bo'lsada, davomiyligi yo'qligi, asossiz aralashuvlar, huquq va majburiyatlar bajarilmasligi, pirovard maqsadga erishishga to'sqinlik qilgan.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekistonning tarqqiyot strategiyasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi<sup>123</sup>. Chunki, mamlakat boyligining salmoqli qismini qishloq xo'jaligidan tushadigan daromadlar tashkil qiladi. Bu daromadlarni ko'paytirish uchun xorijda sinalgan kooperativlarni rivojlantirish zarur bo'ladi.

Kooperatsiyalarni shakli va faoliyati yo'nalishidan qat'iy nazar uni tashkil etishda quydagi tamoyillarga asoslanadi.

A'zo bo'lishning ixtiyoriligi, xo'jalik subyektlarini mustaqilligi saqlab qolishi;

<sup>123</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son qarori // Elektron manba: lex.uz/docs/5841063

Demokratik boshqaruvga ega bo'lishi, ya'ni har bir a'zo alohida ovozga ega bo'lishi;

Kooperativ a'zolarini teng huquqliligi va o'zaro manfatdorligi;

Tuzilgan shartnomalarni bajarilishini ta'minlash;


A'zolik badallarini to'lash orqali kooperativ mulkni shakllanishiga hissa qo'shish.

Kooperativ qishloq xo'jaligi va sanoatning birlashuvi natijasida shakllanadigan birlashma shakllaridan biri kooperatsiyaga asoslangan ishlab chiqarish, qayta ishlash va tayyor mahsulotni sotishga ixtisoslashgan uyushma sanaladi. Bunday uyushmalar fermer xo'jaliklari, tayyorlov tashkilotlari, qayta ishlovchi tashkilotlar, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar integratsiyasi asosida tashkil topadi. Vertikal integratsiyaning o'ziga xos ushbu shakli qishloq xo'jaligi, savdo va qayta ishlovchi korxonalar o'rtaсидagi ziddiyatlarni bartaraf etadi, mahsulotning nobud bo'lishiga barham beradi, mahsulot hajmini ko'paytiradi, yuqori daromad olish imkonini beradi.

Uyushmaning asosiy maqsadi ishlab chiqilgan xomashyoni o'z vaqtida tashib kelish, qayta ishlash, tayyor mahsulotga aylantirib sotishdan ko'proq foyda olish hamda foydaning ma'lum bir qismini uning a'zolari o'rtaсиda umumiyo natijaga qo'shgan xissasiga qarab taqsimlashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Uyushmaning boshqaruv faoliyatiga oid muhim tadbirlardan biri biznes-rejani ishlab chiqish va uni hayotga joriy etilishini ta'minlashdir. Biznes-reja salbiy oqibatlarni oldini oladi, xavf-hatarni kamaytiradi, yangi mahsulot turini ishlab chiqarish asosida uyushmaning raqobatbardoshligini hamda yashash qobiliyatini saqlab qoladi, resurslarni samarali foydalanish uchun zamin yaratadi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi korxonalarining bir-biriga mutanosib ravishda rivoj topishini ta'minlaydi. Uyushmaning tashkil etishda eng ma'sulyatli bosqich uning tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish. Tashkiliy tuzilma tarkibini yoki bo'linmalarini aniqlashda ishlab chiqarish yo'nalishi, tarmoqlarni o'zaro aloqadorligi, ishlab chiqarish hajmi, integratsiyaga monand bo'lgan tarmoqlar va soha faoliyati, mulkchillik shakllari o'rganiladi.

Quyida keltirilgan sxemada hududlarda dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqish, qayta ishlash va sotishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari kooperatsiyasiga asoslangan uyushma boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi keltirilgan (rasm).



**Rasm.** Kooperatsiyasiga asoslangan uyushma boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi

Uyushmaning tashkiliy hududiy tuzilmasi texnik iqtisodiy asosnomani tayyorlash va loyihalash jarayonida ishlab chiqiladi va keyinchalik tajribani oshib borishi bilan takomillashtirib boriladi. Uyushmani tashkil etish o'ziga xos murakkab va ma'sulyatlari jarayon bo'lganligi sababli mantiqiy jihatdan o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlarga amal qilinadi.

Birinchi bosqichda tashabbuskor guruh tuziladi. Uning tarkibi bo'lajak uyushma a'zolari tajribali iqtisodchilar, texnologlar, huquqshunoslar va boshqa mutaxassislardan tashkil topadi. Tashabbuskor guruh uyushma a'zolar sonini, faoliyat yo'nalishini, hududiy joylashuvini, tashkiliy tuzilmasini, mahusloy ishlab chiqarish hajmini, tayyor mahsulotlarni sotish imkoniyatlarini (ulgurji va chakana savdo), mahsulotga bozordagi talab kabilarni o'rganadi. Tashkil etiladigan

uyushmaning texnik-iqtisodiy asosnomasini ishlab chiqadi va moliyalashtirish manbalari aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrdagi "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>124</sup>gi PQ-52-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi kooperatsiya tamoyiliga asoslangan fermer xo'jaliklar uyushmasi boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini yoritib bermoqchimiz.

Meva-sabzavotlar yetishtirish, ularni saqlash, qayta ishslash va sotishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari kooperatsiyasiga asoslangan uyushma boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi tuman va tumanlararo hududlarda tashkil etilishi mumkin. Uyushma fermer va dexqon xo'jaliklari, aksiyadorlik jamyatları, savdo tashkilotlari birlashuvidan tashkil topadi. Ushbu tashkilotlar mustaqil bo'lib, barcha o'zaro munosbatlar shartnoma asosida tashkil etiladi va boshqariladi. Uyushma kengashi uning a'zolari tomonidan tavsiya etilgan vakillardan tashkil topadi. Uyushma raisi tajribali va malakaviy boshqaruv sa'nati va madanyatiga ega yo'llanma menejer bo'lishi mumkin.

Moddiy-texnika ta'minoti bo'limi meva-sabzavotchilik xo'jaliklariga zarur bo'lgan mehnat vositalari va qurollarni yetkazib berish bilan shug'ullanadi.

Moliyalashtirish va buxgalteriya bo'limi uyushmaning moliyalashtirish manbalarini aniqlaydi, shartnomalarni bajarilishini nazorat qiladi, xo'jalik va xo'jaliklararo hisob-kitob ishlarini olib boradi.

Rejallashtirish va istiqbolni aniqlash bo'limi uyushmaning biznes-rejasini ishlab chiqadi va uning bajarilishini nazorat qiladi. Shuningdek, uyushmaning barqaror rivojini ta'minlovchi strategik tadbirlarini ishlab chiqadi.

Innovatsiya va investitsiya bo'limi yangi texnologiyalar, uskunalar va jihozlar, investitsiya loyihibalarini joriy etish ishlarini bajaradi.

Bundan tashqari uyushmada meva sabzavotlarni sifatiga javobgar bo'lgan biolog va virusologlar xam faoliyat olib boradi.

Uyushmaga a'zo bo'lgan meva-sabzavot yetishtiruvchi fermerlar mahsulotlarini klasterlarga sotishi yoki to'g'ridan-to'g'ri chet mamlakatlarga export qila oladilar. Mahsulotdan olingan sof foyda har bir uyushma a'zosini yetishtirgan va uyushmaga olib kelgan mahsulotiga qarab taqsimlanadi. Shuningdek, uyushma

<sup>124</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15-dekabr 2021-yildagi "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-52-sonli qarori // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-5774700>

a'zolari xo'jalik faoliyatidan olingan sof foydadan ishlab chiqarishni kengaytirish va zahira fondi tashkil etishi mumkin.

Uyushmani tashkil etish orqali, birinchidan meva sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini muntazam ravishda sifatli yer uchun biomassalar, yaxshi navli ko'chatlar, moddiy texnikalar va zararkunandalarga qarshi dori vositalarni muntazam ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchidan, yetishtirilgan mahsulotlarga doimiy va ishonchli haridor, qayta ishlovchi va savdo tashkilotlar uchun muntazam ravishda xomashyo tovarlar yetkazib beruvchi kafolatli ta'minotchi paydo bo'ladi.

Uchinchidan, meva sabzavot kooperativlari, qayta ishlovchi va savdo tashkilotlari o'z mulkidan yanada samarali foydalanishga harakat qiladi. Shuningdek kooperativ uyushma a'zolari foydalanilmagan yerlardan o'zaro shartnomalar asosida vaqtinchalik ijaraga olish imkoniyati osonlashadi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaliklari mahsulotini o'z vaqtida yetishtirish va yuqori hosil olishda texnikalarning hissasi kattadir. Ammo, qishloq joylarda muqobil MTP tomonidan xo'jaliklarga yerga ishlov berish bo'yicha texnikalarni xizmat ko'rsatish narxi qimmat bo'lganligi va ushbu to'lovlarni ba'zi bir xo'jaliklar to'lay olmasligi, shuningdek, ushbu texnikalar soni kamligi tufayli mavsum paytida, asosan bahor va kuz oylarida ularning yetishmasligi, hamda xo'jaliklarda mavjud bo'lgan texnikalarni kamligi yoki eskirganligi va yangi sotib olishga katta mablag' talabi sababli agrotexnik tadbirlar kechiktiriladi. Bu esa albatta hosildorlikni kamayishiga yoki o'z vaqtida hosilni yetishtira olmaslikka katta ta'sir etadi.

Shuningdek, har bir meva-sabazavot xo'jaliklari yetishtiryotagan mahsulotlarini muntazam tekshirib borish, laboratoriyanidan o'tkazish shuningdek, hosilga tushgan kasalliklar bilan kurashuvchi mutaxassislar zarur. Bunday mutaxassislarga to'lanadigan ish haqqi ham xo'jaliklar uchun katta harajat talab qiladi.

Shunday qilib, respublikamizda olib borilyotgan agrar iqtisodiy islohatlarning istiqbolli yo'nalishlaridan biri fermer xo'jaliklari kooperatsiyasi hisoblanadi. Qishloq joylarida xo'jalik yuritishning kooperatsiya shaklini joriy etish va uni rivojlantirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi va butun agrosanoat majmuasining iqtisodiy o'sishini ta'minlashga olib keladi.

**FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son qarori // Elektron manba: [lex.uz/docs/5841063](http://lex.uz/docs/5841063)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15-dekabr 2021-yildagi "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-52-sonli qarori // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-5774700>
3. Vaxitov K.I. Kooperativ, nazariy, tarix, amaliyot "Издательско-торговая коорпорация" 2006.
4. Володин, В.М. Кооперация и интеграция в АПК/В. М. Володин, Л. Н. Дубова, Г. А. Баклаженко и др. Пенза, 2005. С. 244.
5. Chayanov. The Theory of Peasant Cooperatives. 1991.
6. Cook, M.L. A life Cycle Explanation of Cooperativ Longevity. 2018